

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

3/2-сан 2024

ИЮНЬ

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Улфат МАҲҚАМОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Раъно ОРИПОВА
Интизар АБДИРИМОВА	Бахтиёр РАХИМОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Умида БАҲАДИРОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Феруза САПАЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Safo Matjon. Shukur Sa'dulla she'riyatida so'z dinamikasi va estetik ta'sirchanlik	7
Suyunov B.T., Shofqorov A.M. So'zlarda ma'no taraqqiyoti va tibbiy terminlar semantikasi	12
Abduqahhorova X.A. Tarixga oid terminlar va ularning yasalishi	21
Жарасбаев Н.А. Түркі халықтары фольклорындағы ортақ сарындардың зерттелуі жайынан	25
Дусбаева Н.Н. Грамматическая интерференция в речи студентов изучение языка	34

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Radjapov U.R., Xakimdjanovala K., Sabirov S. A., Omarov T. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	39
Лафасов Б.Ж. Талабаларнинг касбий тайёргарлигини педагогик кластер ёндашув асосида такомиллаштиришда малакавий педагогик амалиётнинг ўрни	47
Суяров А.М. Инновацион ёндашув асосида таълим муассасасида бошқарув фаолиятини таъкил этиш шарт-шароитлари	55
Muxammadiyev Q.S. Pedagogik innovatsion klaster tizimida kasbga yo'naltirishning nazariy asosi	60
Baxtiyorovala S.I., Ganjayeva Z.O. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning klaster texnologiyalari	65
Qodirova N.Z. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'qituvchining faoliyati	71
Urunova D. M. Jamiyatda inklyuzivlik sharoitida inklyuziv madaniyatni oshirish asoslari	80
Xalimov Z.X. Professional ta'limda va kasb-hunar o'rgatishda baholash va sertifikatlashning roli	85
Турдиев Ж.Р. Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини индивидуал ёндашув асосида ривожлантиришнинг педагогик жиҳатлари	89
Komilova Sh.R. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	94
Qurbonmurotov E.A. O'quv jarayonida tabiiy fanlarni fanlararo bog'lab o'qitish texnologiyasi	100
Файзуллаев Р.Х., Сайфиева Ю.Ў. Олий таълим муассасаларида талабаларнинг мустақил таълим олиш кўникмаларини шаклланишида ўқитувчи ва талаба муносабатлари	104
Рахматуллаева Д., Рахматов Я. Таълимни рақамлаштириш асосида профессионал таълим тизимининг ўқитиш сифатини ошириш омиллари	111
Xalimov Z.X. Professional ta'limda va kasb-hunar o'rgatishda baholash va sertifikatlashning roli	118
Amanova M.A. Professional ta'lim mazmunini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish	122
Amanova M.A. Professional ta'lim muassasalarida integrativ-modulli yondashuv asosida "50810101-qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va servisi texnik texnologii" kasbi o'quvchilarning umumiy texnik tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish	127
Karimova M.B. Tashkilotni boshqarishda ayol va erkak rahbarlarning liderlik masalasi	137
Бахтиёрлов Б. Б. Раҳбар психологик компетентлигини ўрганишнинг илмий-назарий асослари	142
O'rinov U.A., Raxmatova D.S. Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni	153
Ro'ziyeva Z.S. Pedagog kasbiy kompetentligi va emotsional jarayonlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	160
Mirzakulova N.I. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy malakani shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni va ahamiyati hamda takomillashtirish yo'nalishlari	166
Ergasheva G.S. Bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar	174



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARIXNING DASTLABKI TA'LIMINI TASHKIL QILISH USULLARI

Toshtemirova S. A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tarix ta'limi, tarixiy ong, tarixiy idrok, tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, motivatsiya, kompetensiya.

Ключевые слова: начальное образование, историческое образование, историческое сознание, историческое восприятие, историческое мышление, историческая память, мотивация, компетентность.

Key words: primary education, history education, historical consciousness, historical perception, historical thinking, historical memory, motivation, competence.

Kirish. Yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi. Bu yo'nalishda Sh.Mirziyoyev tomonidan "2022-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishitavsiya etildi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish" vazifasi belgilangan. Bu tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish lozimligini, tarix ta'limida ham integratsion sifatni ta'minlash, tarix fanlarini o'qitish metodikalarini takomillashtirish, bo'lajak pedagog-kadrlar kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Integratsion sifatning ta'minlanishi uzluksiz ta'lim muhitida tarix ta'limini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini takomillashtirish lozimligini belgilab beradi.

Bugungi globallashtirish va axborot tahdidlari xuruj olgan muhitda kichik yoshdanoq tarixiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularni mustaqil



va kreativ fikrlashga yo‘naltirish masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Zero, aynan tarixiy saboqlar bolani o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga, ertangi kun sari faol harakatiga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy savodxonlik asosida shakllantiriladigan tarixiy fikrlash kompetensiyalari jamiyatda o‘z “MEN”ni tarkib toptirishga, “Men konsepsiyasi”ning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki birgina tarixiy ong va tarixiy xotiraning shakllanish bosqichlari falsafiy-tarixiy va milliy o‘zlikni anglash integratsiyasi asosida yuzaga keladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda tarixiy ong tarixiy materiallardan foydalanish, tarixiy siymolar asosidagi obrazli ta’lim, tarixiy obektlarni tavsiflash asosidagi amaliy ta’lim, tarixiy voqealarni bayon eshitish va bayon etish asosidagi nutqiy ta’lim orqali rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish tarixiy ongning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu masala bo‘yicha mahalliy olimlarimiz D.Abdullajonova, J.Tulenov, I.Jabborov, R.Abdullayevalarning bevosita tarixiy xotira va tarixiy ong muammosi bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlari mazkur faslning metodologik asosini tashkil etadi. Odatda tarixiy ong ijtimoiy voqeilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy ong shakli sifatida ko‘rsatiladi. Ma’lumki, tarixiy ong va tarixiy xotiraning bugungi kunda o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishdagi tutgan ahamiyati bo‘yicha R.Raxmonov, F.Fayziyevlarning ilmiy risolasi diqqatga sazovordir. Mazkur risolada tarixiy ong va tarixiy xotira tushunchalarini falsfiy tahlil qilish bilan bir qatorda, uning tadrijiy taraqqiyotiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari X.Samiboyev, Sh.Shirinboyev, T.X.Qurbonov, R.A.Kamenskaya, V.J.Kelle, Z.M.ORujdev, T.V.Kuznetsova B.Rajabeklarning ishlarida ham mazkur kategoriyalar va ular bilan bog‘liq kategoriyalar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Muhokama va natijalar. Kognitiv qiziqishlarni shakllantirish tarix o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida “Atrofimizdagi olam” va “Tarbiya” fanini o‘rganish tavsiflash, tahlil qilish, umumlashtirish, asoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish kabi maqsadlarga erishishga qaratilgan. Bu fanni o‘rganish natijasida o‘quvchi Vatan tarixidan (turli tarixiy davrlardagi odamlarning hayoti, mehnati, urf-odatlarini suratlari), ona yurt - Vatan tarixidan (xalq mehnati, kasbining o‘ziga xos xususiyatlari, muhim tarixiy ma’lumotlar) ma’lum tarixiy faktlarni bilishga erishadi. Bu fanlarni o‘zlashtirish davomida maktab o‘quvchilari Vatan tarixidan alohida o‘rganilgan voqealarni tasvirlay olishlari, davlat chegaralarini, aholi punktlarini va hokazolarni xaritada, globusda ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy ongni shakllantirish masalasi uzoq yillardan buyon



o'qituvchilar va uslubchilarni tashvishga solib kelgan. Bu kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan tarixiy materialni o'zlashtirishning va tarixiy faktning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq edi. Shu munosabat bilan mustaqillikkacha bo'lgan davrla uslubchilar tomonidan taqdim qilingan ishlarda boshlang'ich sinflarda tarix fanini obrazli o'qitish, o'qituvchining hikoyasi, suhbat, ko'rgazmali o'qitish vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tarixiy tasavvurlarini boyitish yo'llarini belgilash zarurligi asoslab o'tilgan.

Rus uslubchi va amaliyotchilari maktab o'quvchilarida tarixiy ong va tarixiy g'oyalarni shakllantirish nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shgan. Tarixiy ong va g'oyalar tarixiy tushunchalarni shakllantirishning dastlabki zaruriy bosqichi sifatida belgilandi, bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarixiy dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi. Uslubchilar bir qator samarali tarixiy tasvirlarning tasnifini taklif qildi, vaqt, makon, o'tmish dalillari bo'yicha har bir turdagi tarixiy tasvirlarni yaratish usullarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Zamonaviy uslubchilar o'z ishlarida o'qituvchilarning e'tiborini boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosiy fanga oid va ularni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish sharti sifatida tarixiy ongni shakllantirish zarurligiga qaratadilar. Biroq, ilmiy va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish bizga hozirgi bosqichda o'qituvchilarga boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy ong va tarixiy g'oyalarni shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, jumladan, dars ishlanmalari taklif qilinmaganligi bu mavzuni chuqurroq tadqiq qilish zarurati borligini bildiradi. Demak, hozirgi kunga qadar boshlang'ich maktab o'quvchilari rivojlanishining yoshga bog'liq qonuniyatlarini hisobga olgan holda o'quv fanlari mazmuniga tarixiy materiallar asosidagi ma'lumotlarni kiritishni rivojlantirish orqali kichik yoshdagi o'quvchini mustaqil va nostandart fikrlashga, jamiyatda o'z faol pozitsiyasini egallashga erishishimiz mumkin.

Tarixiy ongni rivojlanishi bir necha bosqichlarni tashkil etadi. Tarix insoniyat egallagan bilimlardan biri sifatida ijtimoiy-hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Tarix insoniyat hayotining umumiy tafsilotidir. Agar tarixni keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, tarixiy tadqiqot va izlanishlar doirasi cheksizdir. Ammo tarixda alohida shaxs tarixiy vaziyatga ko'rinarli va sezilarli ta'sir eta olmaydi.

Diniy nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy taraqqiyot, aynan tarixdan tashqarida yotadigan, ammo unga hal qiladigan darajada ta'sir etkazadigan kuchlarga bog'liq. Ammo ko'pgina hollarda ijtimoiy o'zgarishlarning ibtido sababchisi sifatida, ba'zida buyuk shaxs, ba'zida amorf massa, "braun harakati" ko'rinishlarida inson tarixiy harakatning dalili bo'lib keldi. Tarix fan sifatida



alohida shaxsning ham, umuman jamiyatning ham ma'naviy rivojlanishining ajralmas unsuri hisoblanadi.

Tarix nafaqat insoniyat faoliyati va merosi, balki bu insoniyatning muayyan vaqt oralig'idagi harakatlari va voqealar majmuidir. Tarix shu bilan birga vaqt uyg'unligidir, u faqat vaqtda mavjuddir. Tarixiy ongda aks etgan tarixiy taraqqiyot, uning ziddiyatlari ala-quroq ko'rinishi insoniyat tafakkurini doimo band qilib kelgan.

Tarixiy ong tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Tarixiy ong "Afrodita dengiz ko'pigidan paydo bo'lganidek" birdaniga paydo bo'lgan emas. Uning shakllanishi insoniyat-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi.

Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Tarixiy ong falsafiy-tarixiy tushunchadir. Biz bu tushunchaning mohiyatini ochishdan oldin falsafiy dunyoqarash to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz kerak. Dunyoqarash shu bilan birga, insonning dunyoni ma'lum darajada tushunishi, anglashi, bilishi, baholash va shular asosida amaliy o'zlashtirishidir. U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, insonning dunyodagi o'z o'rni va rolini belgilashi hamdir. Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o'tmish holatini ko'z oldimizda gavdalandiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongidir.

Tarixiy ong genezisiga bag'ishlangan ishlarda, ko'pgina tadqiqotchilar yevropa an'analari bilan chegaralanib qoladi xolos, vaholanki tarixiy ongning dastlabki kurtaklari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshigi - Sharqda paydo bo'lgan.

Tarixiy ongning rivojlanishini qadimgi, o'rta asrlar bosqichlarida uni nazariy tahlili uchun ilmiy asos unsurlari paydo bo'ldi, bu davrda ilmiy nazariy jihatdan tarixiy ongni tahlil qilish tarixni fan sifatida teologik mafkura ta'siridan xalos bo'lishi bilan dastlabki qadamlar qo'yildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "tarixiy ong" va "tarixiy xotira"ni rivojlanish bosqichlari. Hozirgacha tarixiy ong genezisi bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tarixiy ong tarixiy xotira tushunchalari falsafiy- madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tafsiflangan. Biz bu o'rinda



ularni tarix falsafasi nuqtai-nazaridan qarab ularni shakllanishi rivojlanishi bosqichlariga tarixiy nuqtai nazardan e'tiborni jalb qilamiz.

Tarixiy ong va tarixiy xotira bu ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida shaxs, jamiyat, millat, xalq dunyoqarashining bir unsuridir. Dunyoqarash insonning olam haqidagi yaxlit tushunchalari, tasavvurlaridir. Aniqroq aytganda, dunyoqarash inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan turli mazmun va darajadagi umumlashmalar tizimidir. Dunyoqarash inson o'zini va dunyoni yaxlit anglashining o'ziga xos shaklidir. Demak, dunyoqarash oddiy tushuncha emas, balki inson faoliyatiga, uning tabiat, jamiyat hodisalarini tushunishiga, ularga munosabatini belgilashga asos bo'ladigan ma'naviy omildir. Tarixiy ong ham inson dunyoqarashini bir unsuridir.

Ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotira murakkab hamda serqirra hodisadir. Tarixiy ongga, shuningdek uning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy xotiraga, ularning o'zaro hamda ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan R. Raxmonov, F. Fayziyevlarning tarixiy ongni shunday tushuntiradilar: "Tarixiy ong — o'tmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruhlariga, shuningdek alohida individlarga xos bo'lgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baholash hamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi hamda butun insoniyat o'tmishi haqidagi tasavvurlari yig'indisidir. Tarixiy ongda o'tmish, bugun va kelajak uyg'unlikda in'ikos etadi".

Albatta bu tushuncha aniq va mazmunan keng berilgan, biz faqat bu ikki so'zga kengroq e'tibor beramiz. Tarixiy ong va tarixiy xotira yaxlit birlikda bo'lsada, lekin tarixiy ong birlamchi bo'ladi. Tarixiy ong shakllangan, o'zini mukammal darajasiga yetgan bo'lsa, tarixiy xotira shaxs, xalq, millatda yuqori darajada ko'rinadi. Tarixiy ong, bu - har qanday bilimda bo'ladigan, hamma narsa, hatto ma'naviy borliq ham bo'lib o'tganligini anglashdir.

Tadqiqotchi D. Abdullajonova tarixiy ongga shunday ta'rif beradi: "Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, jamiyat tomonidan o'zining kelib chiqishi va zamondagi o'rni, o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi o'rtaidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob'yyekt iv idrok etilishidir". Demak, tarixiy ong nafaqat xalq, millat yoki shaxsga, balki millatga ham tegishli deyish mumkin.



O'zbek faylasuf olimi J. Tulenov tarixiy ongni quyidagicha tushuntiradi: "Tarixiy ong ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan turli-tuman manbalar, ashyolar avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzluksizligini ta'minlaydi". Olimning yuqoridagi ta'rifiga faqat ikki so'zga e'tibor beramiz, ijtimoiy guruh va sinflar. Ijtimoiy guruh va sinfdagi tarixiy ong bo'lishi mumkinmi, agar bo'lgan taqdirda u qanday va nimada namoyon bo'ladi? Bizning fikrimizcha aytilgan kategoriyalar jamiyat va millat, shaxs dunyoqarashida mavjud bo'ladi, ijtimoiy guruh va sinflar tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalarini o'z manfaatlari nuqtai-nazaridan biladilar hamda undan foydalanadilar.

J.Tulenov, I. Jabborovlarning yana bir shu haqdagi tarifiga e'tibor beramiz: "Ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruhlar, sinflar, xalqlar, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblarning haqida, o'z tarixining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisbati haqidagi qarashlar, an'analar, udumlar, odatlar, konsepsiyalar mujassami tushuniladi". Bu tarif keng qamrovli hamda ko'pchilikni qondiradigan darajada bayon qilingan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tarixiy xotirani mazmunan tahlil qilganda tarixiy xotirada san'at, urf-odat, marosimlar bilan bog'liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi deb hisoblaydilar. Bu tushunchada san'at va urf-odat, marosimlar bilan bo'lgan axborotlar to'g'risida aytiladi, lekin tarixiy xotirada ular qanday nufuzga ega va ularni saqlanishi qay tarzda bo'lishini tushunishimiz kerak. Tarixiy ong-tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Shu sababli biz bu yo'nalishda uni tahlil qilmaymiz, faqat tarixiy nuqtai nazardan uni rivojlanish bosqichlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Chunki, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday ta'kidlagan edilar: "Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, kadriyatlari tarixini bilish-ga, uzligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy xol. Odamlar borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi".

Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Uning shakllanishi insoniyat-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.



Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o'tmish holatini ko'z oldimizda gavdalandiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongdir. Tarixiy ong genezisiga bag'ishlangan ishlarda, ko'pgina tadqiqotchilar Yevropa an'analari bilan chegaralanib qoladilar xolos. Yevrosentrizm g'oyasi muxlislari tarixiy ongning shakllanishini Yunonistonda er. avv. V asrda Gerodotning mashhur "Tarix"ida ro'yobga chiqqan deb hisoblaydilar. Empirik nuqtai nazaridan qaraganda Gerodotning asari dastlabki haqiqiy tarixiy asar deb e'tirof etiladi. Vaholanki, tarixiy ongning dastlabki kurtaklari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshigi- Sharqqa paydo bo'lganligi ma'lum, ammo nima uchun tarixiy ongni yaqqol ko'rinishi Gerodot tarixi bilan bog'lanadi va u tarix otasi deb ulug'lanadi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira etnosni jipslashtiradigan milliy o'zligini anglashiga xizmat qiladi. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyatidir. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va manaviy merosidan g'ururlanishdir. Millatga mansublik o'ta nozik va ayni paytda juda murakkab holat. Kishi zarur bo'lganda hayotidagi jamiki ne'matlardan hech og'rinmasdan voz kechish mumkin. Biroq hech kim, hech qachon milliy mansubligidan tonolmaydi. Uni xohlagan paytida xohlagancha o'zgartira olmaydi.

Maktab tarixiy ta'limining zamonaviy konsepsiyasi umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida tarixning dastlabki ta'limini tashkil qilishni nazarda tutadi. Biroq, mamlakatimizda ta'limning boshlang'ich sinflarida tarixning dastlabki ta'limi, uning maqsadi va vazifalari, mazmuni va metodologiyasi, ta'limning muammolari tadqiqiga e'tibor berilmayapti. Binobarin tarix ta'limining asosiy standart talablarida o'tmish haqidagi bilimlarni o'rganish, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, bugungi kun bilan bog'lab o'rganish kabi tahlilily ko'nikmalarni shakllantirish tarixning dastlabki ta'limining asosiy mazmunli yo'nalishidan biri sifatida belgilangan. Boshlang'ich ta'lim bosqichida mavjud fanlarni o'qitish amaliyotini o'rganish kichik yoshdagi o'quvchilarning o'tmish haqidagi bilimlarga qiziqishini shakllantirish uchun shart sharoitlar mavjudligini ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarixni o'rganishga bo'lgan kognitiv qiziqishi muammosi bo'yicha XX asrda olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda jamiyat oldiga qo'ygan ta'lim tarbiya vazifalariga mos kelmaydi. So'nggi yillardagi psixologik va pedagogik tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda yangi imkoniyatlar ochdi. Keng axborot makonida yashovchi zamonaviy boshlang'ich sinf o'quvchisi XX asrga qaraganda ko'proq intellektual qobiliyat va bilimga bo'lgan ehtiyojga ega.



Olib borilgan tahlillarga ko'ra, boshlang'ich sinflarda tarixga bo'lgan qiziqishni shakllantirish jarayoniga faol ta'sir qiluvchi usullarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bular:

obrazli va syujetli bayon qilish;

tasviriy va analitik tavsif;

badiiy va hujjatli adabiyotlardan parchalarni emotsional o'qish;

turli tarixiy rasmlar, xarakteristikalar tuzish;

qiziqarli hikoyalar;

muammoli vazifalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qiziqishlar muammoli ta'lim asosida oshiriladi. O.V.Ostrovskiyning fikricha muammoli ta'lim vaziyatli qiziqishning barqaror munosabat bosqichiga o'tish jarayonida alohida o'rin kasb etadi [1]. Demak, milliy tarixning dastlabki ta'lim kursini o'rganishda uslubchilar tomonidan ishlab chiqilgan qiziqishni shakllantirish usullaridan foydalanish ham mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'quvchining tarix fanlariga bo'lgan kognitiv qiziqishlarini o'quv materialining mazmuni, o'quv faoliyatining tashkil etilishi va tabiti, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga bog'liq. Har qanday yoshdagi ruhiy jarayonlar strukturasining markazida ma'lum bir davrda eng rivojlangan vazifa turadi va u birgarivojlanishga e'tibor beriladi. Boshlang'ich maktab yoshida tafakkur boshqa ruhiy jarayonlarga nisbatan jadal rivojlanadi [2]. Maktabda o'qishni boshlashi bilan bolalarda maktabgacha ta'limda shakllangan xotira va idrok boshqa ruhiy jarayonlarga, xususan tafakkurga nisbatan ancha yuqori rivojlanish darajasiga yetadi. Bunda yetakchi o'rinni A.V.Skripchenko o'z tadqiqotida sensorimotor va mnemonik komponentlar egallashini aniqlagan [3]. Maktabgacha ta'lim tashkilotining 7 yoshli tarbiyalanuvchisi topshiradi, kuzatadi, eslaydi, o'ylash kerak bo'lganda fikrlash komponenti ko'pincha xotiralar, harakat va boshqalar bilan almashtiriladi. Boshlang'ich maktab yoshida jadal rivojlanayotgan fikrlash komponenti ustunlik qiladi. Bu erta rivojlangan tarixiy idrok va tarixiy xotirani sifatli qayta ishlashga, ularning ixtiyoriy jarayonlarga aylanishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarning tarixiy tafakkuri tarkibiy kismlarini rivojlantirish ta'lim klasterining keyingi bosqichidagi ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda tarixning dastlabki ta'limida (bu asosan "Atrofimizdagi olam", "Tarbiya", "O'qish" kabi fanlar, sinfdan tashqari ishlarda, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishda) nafaqat tarixiy fikrlashning o'zgaruvchanligi, balki uning tanqidiyligi ham rivojlanadi. Tarixiy tafakkurning bu xususiyatini namoyon bo'lishi muammoni hal qilishning samarali usullarini optimal tanlash va



baholash qobiliyatidadir [4]. Qachonki bola yetarli bilimga ega bo'lganda unda tanqidiy fikrlash namoyon bo'ladi, shuningdek, tanqidiy fikrlash sinovdan muvaffaqiyatli o'tganda mantiqiy fikrlashning shakllanishi boshlanadi [5]. 7 yoshli bola tanqidiy fikrlashning ma'lum darajasiga yetadi, bu tarixiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Tarixiy fikrlash tanqidiy fikrlashni, tanqidiy fikrlash esa mantiqiy fikrlashni shakllantiradi, bu o'z navbatida bolada kognitiv bilimlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Tarixning dastlabki ta'limi kognitiv motivlarsiz amalga oshmaydi. A.K.Markova va M.V.Matyuxinalarning ta'kidlab o'tganidek, ta'limotni rag'batlantirish ta'limning kognitiv motivlari bilan amalga oshadi [6]. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan motivlarning guruhlariga ko'ra, tadqiqot bo'yicha tarixiy bilimlarga bo'lgan kognitiv motivlarni ikkita asosiy guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

kontent motivatsiyasi – yangi tarixiy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan motiv.

jarayon motivatsiyasi – tarixiy bilimlarga ega bo'lish usullarini o'zlashtirishga qaratilgan motiv.

Mazmuniga ko'ra bu ikki motiv turli ehtiyojlarga ega. Kontent motivatsiyasining shakllanishi yangi amaliyotlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun shart sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lsa, jarayon motivatsiyasi esa, faoliyatga bo'lgan ehtiyojga asoslanadi. Tarixiy bilimlarga bo'lgan kognitiv ehtiyoj bu ikki ehtiyojning birligidan iborat bo'lib, bu ikki ehtiyojning integratsion amalga oishishi kognitiv ehtiyojning shakllanishiga olib keladi. Bu pedagogik hodisani V.S.Yurkevich "yangi bilimlarni olishga qaratilgan faoliyat zarurati", deb hisoblaydi. F.M.Guseynova, M.V.Matyuxinava M.F.Morozovalar tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari dalil va hodisalarga qaratilganligi ta'kidlangan [7]. Bundan ko'rinib turibdiki, tarixning dastlabki ta'limida tarixiy dalil va tarixiy hodisalarning ahamiyati katta. Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishida muhim bo'lgan kognitiv qiziqish muammosi tarixning dastlabki ta'limida klasterli yondashuvni joriy etish orqali yechim topadi. Shu o'rinda savol tug'iladi nega aynan klasterli yondashuv orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq?

Tadqiqot ishlarimiz davomida kichik yoshdagi bolalarda tarixiy savodxonlikni shakllantirish masalariga e'tiborni qaratgan edik. 6-7 yoshli bolada shakllangan tarixiy idrok va tarixiy xotira tarixiy tafakkurning vujudga kelishiga poydevor bo'lishi ta'kidlab o'tildi. Demak, boshlang'ich sinfdagi tarixiy bilimlarga bo'lgan kognitiv qiziqish uzviy ravishda tarixiy savodxonlikni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu klasterning uzviylik va tizimlilik xususiyati bo'lsa,



uning integrativlik xususiyati tarixiy bilimlarga xos kognitiv kompetentlikni rivojlanishiga qaratilgan tarixiy tafakkur faoliyatining obektlari (jarayonlar) va subektlarining o'zaro hamkorligi teng manfaatlar asosida qurilishi lozim. Shundagina ta'limning keyingi o'rta ta'lim bosqichiga tarixiy tafakkuri shakllangan, tanqidiy va mantiqiy fikrlashning dastlabki darajalari vujudga kelgan ta'lim oluvchini yetkazib berish mumkin. Bu jarayon uzviy davom etgan holda, o'z o'zidan ta'lim klasterining keyingi xususiyatini ifodalaydi. Bosqichma-bosqich ijtimoiy buyurtmaning iste'molchiga yetkazib beruvchi tomonidan to'g'ri ta'minlanishga olib keladi. G.R.Pertenova tomonidan 9-10 yoshli bolaning tarixga bo'lgan qiziqish ortib borishi asoslab berilgan, biroq ta'limning keyingi bosqichlarida bu qiziqish darajasi sekin pasayib borishi ta'kidlab o'tiladi. Bu jarayon ta'lim klasterining talablariga to'liq mos kelmayotganligi, ijtimoiy buyurtmani ta'minlashdagi mazmun va faoliyatning integratsion amalga oshirilmayotganligi sababli bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda tarixiy dalillar orqali o'quvchida vatanparvarlikni rivojlantirish, tarbiyaviy jihatlarni, qadriyatlarga bo'lgan munosabatni to'g'ri shakllantirish talab etiladi. Birgina tarixiy biografik materiallarni o'rganish o'quvchilarda Vatan o'tmishini bilishga bo'lgan qiziqishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarning so'nggi yillarida 4-sinflarda o'quvchida umumiy o'rganishga bo'lgan kognitiv qiziqishning pasayishi kuzatiladi. Bu "boshlang'ich maktab ta'limining mazmuni va tashkil etilishidagi kamchiliklarda" [10] deyish mumkin. Buni A.M.Matyushkin o'quvchining yuki ortishi sababidan kognitiv faollik pasayishi mumkin, deb asoslaydi [11].

Xulosa. Uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asnosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan fanlarni o'qitish bilan bog'liq bilimlarning yetishmovchiligini qayd qilish mumkin. Zero, boshlang'ich ta'lim bosqichida tarixni o'rganishning asosiy vazifasi kognitiv qiziqishni shakllantirish zaruratida, degan xulosaga kelish mumkin. Boshlang'ich makabda tarixning dastlabki ta'limini o'qitish ilmiy emas, balki adabiy xarakterga ega bo'lishi, miflar, rivoyat, ertak va an'analariga qiziquvchan usulda bo'lishi kerak. Bolaning o'tmishdagi jarayonlar, hodisalar bilan tanishishi samarali faoliyat asosida rivojlanadi. Bolaning kognitiv qiziqishi aksariyat hollarda harakatlarga qaratilgan bo'ladi. Bularni tarixiy shaxslar hayotini o'rganish orqali o'rganib ko'radigan bo'lsak, tarixiy shaxs xarakteri, ularning harakatlaridagi motivlari, shaxsiy hayoti va hokazo barchasi bolani qiziqitiradi, u tarixga bo'lgan kognitiv qiziqishni shakllanishining birinchi bosqichini (7-12 yoshgacha) tarixiy qahramonlarning tarjimai holi bolaning mavjud bilimlari va tajribasi bilan bog'lansa, ya'ni uning Vatani, mashhur afsona va rivoyatlar



bolaga tushunarli bo'lgan faoliyat bilan (jang, ov, qurilish tasvirlari) bog'lansa, o'sha tarixiy shaxslarga bo'lgan qiziqishi shakllanish imkoniyatini beradi. Uslubchi V.Voljaninning fikricha, boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar uchun tarixiy materialni haqiqatga mos ravishda yetkazish muhim bo'lib, ular biror yozuv yoki hikoyaning obektivligiga juda qiziqadi.

Adaboyotlar:

1. Островский О.Б. Формирование познавательного интереса учащихся к изучению вопросов культуры (на материале курсов истории VII—VIII классов): Дис. ... канд. пед. наук. Л., 1988. - 190 с.
2. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций: Из неопубликованных трудов. М.: Просвещение, 1960. -500 с.
3. Скрипченко А.В. Умственное развитие младших школьников: Автореф. ... дис. д-ра психол. наук. Л., 1971. -55 с.
4. Байрамов А. С. Динамика развития самостоятельности и критичности мышления детей младшего школьного возраста: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. Баку, 1968. -128 с.
5. Блонский П.П. Избранные психологические произведения. М.: Просвещение, 1964. - 548 с.
6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения. М.: Просвещение, 1990. -191 с. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. М.: Педагогика, 1984. - 144 с.
7. Юркевич В.О. Индивидуально-психологические различия в познавательной потребности // Личность и деятельность: Тезисы докладов к V Всесоюзному съезду психологов (27 июня - 2 июля 1977 г.). М., 1977. С. 56-57.
8. Пертенава Г.Р. Динамика изменения интересов детей на рубеже перехода к подростковому возрасту. Автореф. ... канд. пси- хол. наук. М., 1988. 23 с.
9. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М.: Просвещение, 1968, -464 с.
10. Развитие творческой активности школьников / Под ред. А.М. Матюшкина. М.: Педагогика, 1991. -155 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada tarixiy bilimlarga xos kompetensiyalarni shakllantirishda tizimlilik va uzviylik tamoyilining ahamiyati keltirilgan, shunga mivofiq boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish, boshlang'ich ta'limda tarixning dastlabki ta'limini tashkil qilish usullari taqdim qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена важность принципа системности и последовательности в формировании компетенций, свойственных историческому знанию, соответственно методике формирования компетенций исторического мышления у младших школьников и организации начального обучения истории в начальной школе. представлены.

SUMMARY

In this article, the importance of the principle of systematicity and coherence in the formation of competencies specific to historical knowledge is presented, accordingly, the methods of forming the competencies of historical thinking in primary school students and organizing the initial education of history in primary education are presented.